

JINOYAT PROTSESSIDA DALILLARNI TO'PLASH USULLARI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

*Mirzoyev Alisher Davlatovich, O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi tinglovchisi*

PROBLEMS RELATED TO METHODS OF COLLECTING EVIDENCE IN CRIMINAL PROCEEDINGS

*Mirzoev Alisher Davlatovich, the Law Enforcement Academy of
the Republic of Uzbekistan*

ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С МЕТОДАМИ СБОРА ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

*Мирзоев Алишер Давлатович, Академия
правоохранительных органов Республики Узбекистан*



<https://orcid.org/0009-0006-9511-6111>

e-mail:

[alisher.mirzoyev.1985@mail.](mailto:alisher.mirzoyev.1985@mail.uz)

uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada dalillarni to'plash protsessual usullari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi. Bunda jinoyat protsessida dalillarni tergov va boshqa protsessual harakatlar bilan to'plashning mohiyati, dalillarni mustahkamlash hamda to'plash subyektlari bilan bog'liq muammolar muhokama qilinadi. Shuningdek, jinoyat protsessida dalillarni to'plash bilan bog'liq tergov va boshqa protsessual harakatlar ko'p yillar davomida dalillar va isbotlash muammolari bilan shug'ullanadigan olimlarning to'plangan empirik materiallari, tergov va sud amaliyoti materiallari qonun chiqaruvchining dalillarni to'plash masalalarini tartibga solishi kerak degan xulosaga olib keldi.

Kalit so'zlar: tergov harakatlari, boshqa protsessual harakatlar, dalillarni to'plash subyektlari, dalillarni mustahkamlash, tergov harakati belgilari, sud harakatlari, taftish.

Abstract: This article considers issues related to procedural methods of collecting evidence. The text highlights the importance of gathering evidence in criminal proceedings through investigative and other procedural measures, as well as the challenges associated with securing and collecting such evidence. It references empirical research conducted by scholars who have long studied issues related to evidence and proof in criminal cases, along with insights from investigative and judicial practices. These findings have prompted the legislator to conclude that the process of collecting evidence needs to be formally regulated.

Key words: investigative actions, other procedural actions, subjects of evidence collection, evidence consolidation, signs of investigative actions, judicial actions, audit.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с процессуальными приемами собирания доказательств. В ней рассматривается сущность собирания доказательств в уголовном судопроизводстве путем следственных и иных процессуальных действий, проблемы, связанные с закреплением и собиранием доказательств. Также эмпирические материалы ученых, которые на протяжении многих лет занимаются проблемами доказательств и доказывания в уголовном судопроизводстве, материалы следственной и судебной практики привели законодателя к выводу о необходимости регулирования вопросов собирания доказательств.

Ключевые слова: участники сбора доказательств, иные процессуальные действия, следственные действия, закрепление доказательств, признаки следственных действий, судебные действия, ревизия.

KIRISH. Jinoyat-protsessual nazariyada dalillarni to'plash usullari olimlar tomonidan ma'lum bir davrda amalda bo'lgan jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalariga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 87-moddasida dalillarni to'plash ushbu tartibda bayon qilingan: "Dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatuvni hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksqumatsiya qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planadi".

Ba'zi mualliflar ushbu normani tahlil qilib, faqat qonunda ko'rsatilgan tergov harakatlari dalillarni to'plash usullari bo'lishi mumkin, deb hisoblashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Boshqa olimlar, aksincha, jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasida tergov organlari jinoyatlar va ularni amalga oshirgan shaxslarni fosh etish uchun ham protsessual, ham tezkor-qidiruv tadbirlari qo'llanilishi ham bayon qilingan. Tezkor-qidiruv usullari nafaqat dalillarni to'plash usullari, balki qidiruv faoliyati sifatida ham xizmat qilishi mumkin? Bundan tashqari, ekspertiza o'tkazish yoki taftish tayinlash, ashyoviy dalillarni, hujjatlar va elektron ma'lumotlarni qabul qilib olish, dalil to'plash usuli sifatida belgilash masalasida mualliflarning fikrlari turlicha hisoblanadi.

Demak, Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasida dalillarni to'plashning uchta usuli asosan nazarda tutilgan deb hisoblash mumkin:

- tergov harakatlarini o'tkazish;
- tergov harakatlarini o'tkazmasdan (jumladan, ekspertiza, taftish va tezkor-qidiruv tadbirlari;

- fuqarolar va jarayon ishtirokchilari tomonidan dalillarni taqdim etish.

Lekin, qonunda ayni bu jarayonlardan tashqari, boshqa bir qancha usullar ham keltirib o'tilgan bo'lib, bunday usullar bazi protsessual olimlar tomonidan ham bayon qilingan edi. Jumladan, F.N.Fatkullin ham xuddi shunday fikrlarni bayon qilgan. U "Tergov amaliyotida dalillarni to'plash, ulardan foydalanish metodlarining o'rnini keng ko'lamli tergov va boshqa protsessual harakatlar orqali ochib bergan". Shuningdek, u dalillarni to'plash usullari qatorida boshqa protsessual harakatlarga qo'shimcha qilgan: dastlabki tergov, prokuratura va sud tomonidan jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslardan ish yuzasidan ahamiyatli bo'lgan ashyoviy dalillar va hujjatlarni talab qilish, taftish tayinlash[1;168], sud protsessining boshqa ishtirokchilari hamda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan materiallar taqdim etilishi, muayyan shaxslardan tushuntirishlar talab qilish va boshqalar[2;158].

Ko'p yillar davomida dalillar va isbotlash muammolari bilan shug'ullanadigan olimlarning to'plangan empirik materiallari, tergov va sud amaliyoti materiallari qonun chiqaruvchining dalillarni to'plash masalalarini tartibga solishga undadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi dalillarni to'plash tergov va boshqa protsessual harakatlar bilan amalga oshirilishini belgilab beradi. Lekin, dalillarni to'plash usullarini tergov harakatlari hamda boshqa protsessual harakatlarga taqsimlagan holda, dalil to'plash tushunchasi hamda ro'yxatining konkret ta'rifini bermaydi.

Shu munosabat bilan, ko'plab olimlarning mulohazalariga ko'ra, tushunchalar va ta'riflarning mavjud emasligi, jinoyat-protsessual huquq fanida dalillarni to'plash usullarini har xil tushunish va talqin qilishga yo'l ochadi va amalda ularni ishlab chiqish jarayonida olingan ma'lumotlarni dalil sifatida e'tirof etish bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi [3;37].

Hozirgi vaqtda jinoyat protsessi fanida, asosan, ko'plab olimlar dalillarni to'plash usullari protsessual harakatlar deb hisoblashadi. Biroq, protsessual harakatlarning qonuniy talqiniga qaramay, turli mualliflar tomonidan dalillarni to'plash usullari boshqacha talqin qilinadi. Masalan,

A.V.Smirnov va K.B.Kalinovskiy dalillarni to'plash usullari "Bu ayrim turdagi dalillarni aniqlash, olib qo'yish va rasmiylashtirish uchun qonun bilan belgilab qo'yilgan usul va vositalar tizimidir [4;210]. Bularga tergov harakatlari va boshqa protsessual harakatlar kiradi; dalillarni talab qilish va taqdim etish; himoyachining hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni olish, ularning roziligi bilan shaxslarni so'roq qilish va h.k [5;53].

Jinoyat protsessi fanida dalillarni to'plash usullari tezkor qidiruv tadbirlarini o'z ichiga oladi degan fikrlarni ham topish mumkin. Xususan, N.A.Popova quyidagi tahrirda dalillarni to'plashga bag'ishlangan maqola chop etish orqali o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni tavsiya sifatida bildirgan edi: "Dalillarni to'plash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan tergov harakatlari, tergov-qidiruv faoliyati va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali jinoyat ishini yuritish jarayonida amalga oshiriladi..."[6;96] Bizning fikrimizcha, bunday taklif o'z-o'zidan qarama-qarshi bo'lganligi sababli rozi bo'lish mumkin emas. Birinchidan, tezkor-qidiruv tadbirlari protsessual harakat emas, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish JPKning normalari bilan emas, aksincha "Tezkor-qidiruv faoliyati" to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi, ikkinchidan, na tergovchi, na prokuror va na sud tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshira olmaydi.

Bizning fikrimizcha, V.S.Balakshinning pozitsiyasi to'g'riroq, u haqiqiy ma'lumotlarni va ularning manbalarini to'plash, birlashtirish va tekshirish usullari aniq protsessual harakatlar bo'lib, ularni tergov, boshqa protsessual va sud-tergovi deb tasniflash mumkin[7;96].

R.V.Kostenkoning ta'kidlashicha, dalillarni to'plash usullari tergov, sud va boshqa protsessual harakatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, dalillarni to'plash usullari faqat protsessual harakatlar bo'lib, ular o'z navbatida jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tergov, sud va boshqa protsessual harakatlarga bo'linadi[8;54].

Ko'rib turganingizdek, qonun chiqaruvchi protsessual harakatlarni tergov, sud va boshqa protsessual harakatlarga ajratdi. Biroq, ushbu tushunchalarni me'yoriy talqin qilishning yo'qligi amaldagi qonunchilikning kamchiliklari bo'lib, qaysi harakatlar tergov, qaysi sud va boshqa protsessual masalalar bo'yicha noaniq fikrlarni keltirib chiqaradi. Masalan, dalillarni to'plash

usullarini tergov va boshqa protsessual usullarga ajratish tarafdorlari, ehtimol tergov harakatlari va sud harakatlari o'rtasida katta farqni ko'rmaydilar. Bizning fikrimizcha, bu noto'g'ri fikr "...sud jarayonida amalga oshirilgan barcha kognitiv harakatlar tergov deb ham nomlanishi mumkin"[9;6]. Dalillarni to'plashga qaratilgan sud harakatlari nafaqat birinchi instansiya sudi tomonidan, balki apellyatsiya instansiyasida sud majlisining bir qismi sifatida ham amalga oshiriladi, bu endi barcha jinoyat ishlari bo'yicha jinoyat-protsessining majburiy bosqichidir. Yuqorida aytilganlar sudgacha va sud protsessida dalillarni to'plash usullarini farqlash to'g'risida bahslashish uchun asos bo'ladi. Sudgacha bo'lgan ish yuritishda dalillarni to'plashning asosiy usullari tergov harakatlari, sud protsessida esa ularni o'tkazishning protsessual tartibida, ularni o'tkazish subyektlarida va protsessual mustahkamlashda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan sud harakatlari hisoblanadi.

Keling, tergov harakatlarining mohiyati haqida batafsilroq to'xtalamiz. Jinoyat protsessi fanida olimlar tergov harakatlarini turli yo'llar bilan aniqlaydilar. Yuridik adabiyotlarda ko'p qo'llaniladigan mulohaza – bu tergov deganda – dalillarni to'plash, tadqiq qilish, dalillarni tekshirish hamda protsessual rasmiylashtirishga qaratilgan harakatlar tushuniladi. Shuningdek, biz ushbu pozitsiyani qo'llab-quvvatlaymiz, chunki tergov harakatlarining bunday ta'rifi ular oldida turgan bevosita maqsad va vazifalarni aks ettiradi, jumladan, majburlash choralarini alohida ajratish imkonini beradi. Biroq, tergov harakatlarining ahamiyatini to'liq ochish uchun yetarli deb hisoblanmaydi. A.N.Kuznetsov fikriga ko'ra, "Dalillarni olishga ham tergov harakatlari hamda boshqa protsessual harakatlar ham yo'naltirilishi mumkin"[10;55].

Tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini tahlil qilish, tergov harakatlari va natijalari protsessual qonunchilik bilan tartibga solish hamda dalillarni to'plashga qaratilgan degan fikrga olib keladi. Dalillarni to'plash usuli bo'lgan boshqa protsessual harakatlar bunday batafsil tartibga solinmagan bo'lsa ham. Bundan tashqari, biz tergov harakatlari kognitiv va tasdiqlovchi jihatlarga asoslangan deb hisoblaydigan olimlarning fikriga qo'shilishimiz mumkin. "Har qanday tergov va boshqa harakatlar ma'lum bir bilish usullaridan

foydalanishni o'z ichiga oladi: so'rov, taqqoslash, o'lchash, sintez, modellash, tavsiflash va boshqalar"[11].

S.A.Sheyfer tergov harakatlari qamrovida "protsessual qonun bilan tartibga solingan va samarali qidiruv, idrok etish orqali bajariladigan, izlarning alohida belgilariga javob beradigan hamda ularda mavjud axborotlarni tezda topish va mustahkamlashga moslashgan" kompleks harakatlar majmui turadi. Bayev va D.A.Solodov, faqat "dalillarga asoslangan ma'lumot" atamasi o'rniga ular "dalillar" atamasini ishlatishadi, bu bizning fikrimizcha juda maqbuldir.

A.B.Solovyov fikricha "qonun bilan tartibga solingan, o'zaro aloqador harakatlar tizimini qamrab oluvchi, ularda umum-ilmiiy bilish usullari mavjud ekanligi va o'ziga xos birikma bilan bog'liq, o'zaro ta'sir qiluvchi va tasdiqlovchi jihatlarga ega hamda jinoyat ishini yuritish muammolarini hal qilish maqsadida dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan protsessual harakatlar" tushuniladi[12;53].

Shunday qilib, ularni tahlil qilish asosida tergov harakatining asosiy belgilarini aniqlash kerak, bu o'rganilayotgan hodisaning eng to'liq tushunchasini shakllantirishga, shuningdek ularning turlarini aniqlashga yordam beradi. Tergov harakatiga quyidagi atributlarni kiritish mumkin:

1) ishga aloqador bo'lgan dalillarni to'plash va tekshirishga yo'naltirilgan;

2) amalga oshirishning protsessual tartibi O'zbekiston Respublikasi JPKning 10-25-boblari bilan tartibga solinadi;

3) asosan tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan bajariladi;

4) dastlabki tergov bosqichida ham amalga oshiriladi;

5) bilish hamda tasdiqlash xarakteridagi maxsus ishlab chiqilgan texnika va vositalar majburlash elementlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan xususiyatlar bizga "tergov harakatlari" tushunchasining ta'rifini shakllantirishga imkon beradi, biz O'zbekiston Respublikasi JPKda tergov harakatlari tushunchasini kiritish bilan mustahkamlanishini taklif qilamiz.

Tergov harakatlari – bu O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalari bilan tartibga solinadigan, tergov qilinayotgan jinoyat ishi yuzasidan dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan harakatlar,

tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan dastlabki tergov davomida olib boriladigan majburlash elementlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan maxsus ishlab chiqilgan kognitiv va tasdiqlovchi texnik va vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi tergov harakatlarining quyidagi turlarini nazarda tutadi: ko'zdan kechirish (JPKning 135-141-moddalari); murdani eksqumatsiya qilish (JPKning 148-158-moddalari); guvohlantirish (JPKning 142-147-moddalari); tergov eksperimenti (JPKning 153-156-moddalari); tintuv va olib qo'yish (JPKning 157-168-moddalari); telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish (JPKning 169-171-moddalari); so'roq qilish (JPKning 96-121-moddalari); yuzlashtirish (JPKning 122-124-moddalari); tanib olish uchun ko'rsatish (JPKning 125-131-moddalari); ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish (JPKning 132-134-moddalari); ekspertiza (JPKning 172-187-moddalari); taftish (JPKning 187¹-187¹¹-moddalari).

O'zbekiston Respublikasi JPKda "tergov harakatlari" atamasi kodeksning 10-25-boblarida ko'rsatilgan harakatlarni nazarda tutgan.

Dalillarni to'plashning navbatdagi usuli sud harakatlari bo'lib, ular tergov harakatlari singari jinoyat-protsessual kodeksida batafsil tartibga solinadi.

R.Kostenko shunga o'xshash harakatlarga quyidagilarni kiritishni tavsiya qiladi:

1) sud bosqichida sudlanayotgan shaxsni so'roq qilish;

2) sud bosqichida sudlanayotgan shaxs ko'rsatmalarini o'qib eshittirish;

3) jabrlanuvchi sifatida jalb qilingan shaxsni so'roq qilish;

4) guvoh sifatida ishga jalb qilingan shaxsni so'roq qilish;

5) jabrlanuvchi yoki guvohning bergan ko'rsatuvlarini va taqdim etilgan hujjatlarni jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yish;

6) jabrlanuvchi ko'rsatuvi haqida bildirish va guvohni so'roq qilish;

7) shakllantirilgan ekspertiza xulosalari yuzasidan ekspert ko'rsatuvini olish;

8) ish yuzasidan tegishli sud ekspertizalarini tayinlash;

9) tergov jarayonida yoki sudda olingan ashyoviy va yozma dalillarni ko'zdan kechirish;

10) tergov harakati natijasida tuzilgan bayonnomalar, ekspertiza xulosalari va boshqa hujjatlarni o'qib eshittirish;

11) sudga ixtiyoriy taqdim qilingan hujjatlar va ashyoviy dalillarni jinoyat ishi materiallariga qo'shish;

12) atrof muhitni hamda tegishli binolarni ko'zdan kechirish;

13) eksperiment tayinlash va o'tkazish;

14) tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazish;

15) guvohlantirish[13;54].

O'zbekiston Respublikasi JPKda ushbu harakatlarning barchasi sud tergovini tartibga soluvchi 52-bobda keltirilgan, shuning uchun bu harakatlarning barchasini dalillarni to'plash usuli sifatida qo'llaniladigan sud harakatlariga bog'lash mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Sud harakatlari dalillarni to'plash usuli sifatida, shuningdek, apellyatsiya sudi tomonidan videokonferensaloqa tizimlaridan foydalangan holda jinoyat ishini ko'rib chiqishda ishlatilishi mumkin.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz "sud harakatlari" tushunchasini qonunga kiritishni taklif qilamiz:

"Dalillarni to'plash usuli sifatida ishlatiladigan sud harakatlari – bu jinoyat-protsessual kodeksining 52-bobida tartibga solingan, ish bo'yicha dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan protsessual harakatlar, maxsus ishlab chiqilgan texnik va kognitiv vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan harakatlar tushuniladi".

Jinoyat protsessida dalillarni to'plashning navbatdagi usuli boshqa protsessual harakatlardir. Hozirgi kunda asosan barcha olimlar dalillarni to'plashning ushbu usuli mavjudligini tan olishadi.

XULOSA. Shunday qilib, S.A.Sheyferning ta'kidlashicha, tergov harakatlaridan boshqa, dalillarni to'plashning protsessual usuli gumonlanuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, jabrlanuvchiga yoki uning vakili hamda boshqa ishtirokchilarga, shuningdek HMQ organlar va shaxslarga ashyolar yoki hujjatlarni taqdim qilishdir[14;104]. Bir qator olimlarning ta'kidlashicha, og'zaki xabarlar ham taqdim etilishi mumkin[15;377].

V.A.Lazareva tergov harakatlarini dalillarni to'plashning eng muhim usuli ekanligini aytib o'tgan. Shuningdek, u dalillarni taqdim qilish, talab qilib olish va taftish o'tkazish talabnomasini dalillarni to'plash usullariga kiritadi[16;210].

Boshqa ko'plab olimlar, shuningdek, boshqa protsessual harakatlarni dalillarni to'plash usullari bilan aniq bog'lashadi[7;55].

O'zbekiston Respublikasi JPKning 87-moddasi dalillarni to'plash boshqa protsessual harakatlar orqali amalga oshirilishi mumkinligi to'g'risidagi bayon qiladi. Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi 2-qismida ishga tegishli axborotga ega shaxslar o'rtasida so'rov o'tkazish, yozma tushuntirishlar olish, davlat hamda boshqa organlarga, shu bilan korxona, muassasa va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni olish orqali to'planishi mumkinligi aytilgan. Biz dalillarni to'plashning ushbu usulini protsessual tarzda birlashtirish to'liq emas va qonunchilikni takomillashtirishni talab qiladi, deb hisoblaydigan olimlarning fikriga qo'shilamiz. Milliy qonuchiligimizda dalillarni taqdim etishning protsessual tartibini ochib beradigan moddalar mavjud emas hamda bu huquqqa ega shaxslar doirasi aniqlanmagan. Qonunning ushbu normalarini takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 87-moddasida himoyachi ham tergov qilinayotgan jinoyat ishi yuzasidan dalillarni to'plashi hamda taqdim etishga haqliligi, ularni jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sudda ko'rish jarayonida baholanishining majburiy ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Bunday holda, biz dalillarni to'plashda ishlatiladigan boshqa protsessual harakatlar - dalillarni talab qilish haqida gapiramiz.

Shu munosabat bilan shuni ta'kidlashni istardikki, nafaqat himoyachi, balki jinoyat ish yuritishni bevosita amalga oshiradigan shaxslar ham bunday vakolatlarga ega. Bu jinoyat protsessining oshkoraligidan kelib chiqadi va protsessual qoidalarga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi JPKning tahlil qiladigan bo'lsak, to'plash jarayonning turli bosqichlarida ishlab chiqishning protsessual tartibga soluvchi turli moddalarda protsessual harakatlar

mavjud bo‘lib, ular o‘z tabiatiga ko‘ra dalillarni to‘plash usuli sifatida foydalaniladigan boshqa harakatlar bilan bog‘liq ekanligini taxmin qilish mumkin. Lekin, “dalillarni to‘plash uchun qo‘llaniladigan boshqa protsessual harakatlar” tushunchasining mavjud emasligi, ularning JPK bo‘ylab tarqalishini hamda klassifikatsiyasining yo‘qligi ushbu masalani yanada puxta va batafsil o‘rganish zarurligi to‘g‘risida xulosaga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гаврилин, С.А. Соби́рание доказательств в уголовном судопроизводстве. Вестник Московского университета МВД России, 2012. с. 163-168.
2. Фаткуллин Ф.Н. Общие проблемы процессуального доказывания. - Казань, 1976. - С. 156-158.
3. Коневец К.С. Способы соби́рания доказательств на стадии возбуждения уголовного дела в российском уголовном процессе. - Краснодар, 2007. с. 37
4. Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Уголовный процесс: Учебник для вузов /Под общ. ред. А.В. Смирнова. - СПб., 2004. – с. 210.
5. Кузнецов А.Н. Следственные и иные процессуальные действия как способы соби́рания доказательств в уголовном процессе: Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - М., 2005. - С.53.
6. Попова Н.А. Вещественные доказательства: соби́рание, представление и использование их в доказывании: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Саратов, 2007. - С. 10.
7. Балакшин В.С. Доказательства в российском уголовном процессе: понятие, сущность, классификация: Монография. - Екатеринбург, 2002. - С.95-96.
8. Костенко Р.В. Соби́рание доказательств по уголовным делам путем производства следственных и иных процессуальных действий / Труды Кубанского государственного аграрного университета. Серия: ПРАВО 2(5). - Краснодар, 2009. - С.54.
9. Шейфер С.А. Следственные действия. Основания, процессуальный порядок и доказательственное значение. - Самара, 2004. - С.6.
10. Кузнецов А.Н. Следственные и иные процессуальные действия как способы соби́рания доказательств в уголовном процессе: Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - М., 2005.-с.55.
11. Шейфер С.А. Следственные действия. Система и процессуальная форма. - М., 1981.
12. Соловьев А.Б. Доказывание в досудебных стадиях уголовного процесса России: научно-практическое пособие. - М., 2002. - С.53.
13. Костенко Р.В. Соби́рание доказательств по уголовным делам путем производства следственных и иных процессуальных действий / Труды Кубанского государственного аграрного университета. Серия: ПРАВО 2(5). - Краснодар, 2009. - С.54.
14. Шейфер С.А. Доказательства и доказывание по уголовным делам. - М., 2009. - с. 96- 104.
15. Теория доказательств в советском уголовном процессе. - М., 1973. - с. 376-377.
16. Лазарева В.А. Доказывание в уголовном процессе. - М., 2009. - с. 63.
17. Сазонова Т.П. Иные процессуальные действия как способы соби́рания доказательств в до судебном производстве: Автореферат на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Челябинск, 2009. - С.8-33;
18. Z.Yaxshiyeva. Jahon adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi. Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: Проблемы и решения. 2023.
19. Z.Yaxshiyeva. XVI asr ingliz adabiyotida yoritilgan Temur obrazining qiyosiy tahlili. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, 2023.